



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI**

B U Y R U G ‘I

**Amaldagi qonunchilik hujjatlari takomillashtirilganligi munosabati bilan
O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy apparati
va hududiy bo‘linmalaridagi vakant boshqaruv lavozimlarga tanlov asosida
ishga qabul qilish tizimini amaldagi qonunchilikka muvofiqlashtirish
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi va amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq, shuningdek, amaldagi qonunchilik hujjatlari takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy apparati va hududiy bo‘linmalaridagi vakant lavozimlarga tanlov asosida ishga qabul qilish tizimini amaldagi qonunchilikka muvofiqlashtirish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy apparati va hududiy bo‘linmalaridagi vakant boshqaruv lavozimlariga tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy apparati va hududiy bo‘linmalaridagi vakant boshqaruv lavozimlariga tanlov asosida ishga qabul qilishda nomzodlarni saralash komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – Tanlov komissiyasi) tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki, Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi Tanlov komissiyasining ishchi organi hisoblanadi hamda Ishchi organ quyidagilarga mas’ul sanaladi:

Tanlov komissiyasiga yuklatilgan vazifalarni amalda to‘liq, samarali va lozim darajada bajarish;

tanlovni o‘tkazish bilan bog‘liq tashkiliy ishlar ijrosini o‘z vaqtida, to‘g‘ri, qonuniy ta’minlash;

Vazirlik va uning hududiy bo‘linmalaridagi vakant lavozimlarni o‘z vaqtida, zamonaviy fikrlovchi xodimlar bilan doimiy ravishda ochiq, mustaqil, shaffof shaklda to‘ldirib borish;

alohida tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan xodimlarni belgilangan alohida tartib bo‘yicha qonunchilik hujjatlariga to‘liq amal

qilgan holda lavozimga qabul qilish, lavozimdan ozod etish bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish.

4. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining 2021-yil 1-dekabrdagi 664-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

5. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Vazir



Sh. Shermatov

Toshkent sh.
2023-yil 16-oktabr
272-son